


XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2024-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 25 928 mingtani tashkil etib, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 22 066 mingtani tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar *fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*




Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish 165 tadan 338 taga (o‘shish 173 taga), tashish va saqlash – 162 tadan 203 taga (o‘shish 41 taga) ko‘paydi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Tumanlar kesimida


Amudaryo	374
To‘rtko‘l	345
Nukus	331
Beruniy	302
Kegeyli	198
Qo‘ng‘irot	197
Qonliko‘l	181
Ellikqal‘a	191
Chimboy	167
Xo‘jayli	148
Nukus sh.	129
Mo‘ynoq	137
Qorao‘zak	133
Bo‘zotov	119
Shumanay	107
Taxiatosh	93
Taxtako‘pir	115



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura



O‘rmonchilik va yog‘och
tayyorlash


Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko‘rsatish

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta‘rifi**

Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)


Tumanlar kesimida

Nukus sh	661
Amudaryo	375
Beruniy	290
Bo‘zotov	60
Qorao‘zak	167
Kegeyli	120
Qo‘ng‘irot	280
Qonliqo‘l	82
Mo‘ynoq	148
Nukus	101
Taxiatosh	139
Taxtako‘pir	118
To‘rtko‘l	338
Xo‘jayli	207
Chimboy	159
Shumanay	75
Ellikqal‘a	346



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o‘shirish sur‘ati 114,2 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish 101,2 foiz); 4,8 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘shirish 89,8 foiz); 2,5 foizini suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish (o‘shirish 123,1 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (o‘shirish 90,9 foiz) tashkil etgan.



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Tumanlar kesimida

Nukus sh	849
Amudaryo	81
Beruniy	91
Bo'zotov	19
Qorao'zak	51
Kegeyli	52
Qo'ng'iro't	91
Qonliko'l	37
Mo'ynoq	36
Nukus	93
Taxiatosh	59
Taxtako'pir	23
To'rtko'l	145
Xo'jayli	111
Chimboy	50
Shumanay	29
Ellikqal'a	114




O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,4 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,7 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,7 foiz ulushni va 80,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

316 Fuqarolik
obyektlarini qurish

536 Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari


1 079 Bino va
inshootlar qurish



Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	2 112
Amudaryo	643
Beruniy	717
Bo‘zotov	58
Qorao‘zak	156
Kegeyli	204
Qo‘ng‘irot	406
Qonliqo‘l	181
Mo‘ynoq	162
Nukus	162
Taxiatosh	248
Taxtakopir	100
To‘rtko‘l	879
Xo‘jayli	404
Chimboy	385
Shumanay	203
Ellikqal‘a	549



Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 564 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 65,0 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘shir sur‘ati 98,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,9 foiz ulushni tashkil etib, o‘shir sur‘ati 108,0 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash yo‘nalishida 10,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘shir sur‘ati 113,3 foizni tashkil etdi.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida

Nukus sh	189
Amudaryo	40
Beruniy	36
Bo‘zotov	1
Qorao‘zak	5
Kegeyli	15
Qo‘ng‘irot	35
Qonliko‘l	4
Mo‘ynoq	4
Nukus	12
Taxiatosh	16
Taxtako‘pir	7
To‘rtko‘l	32
Xo‘jayli	33
Chimboy	18
Shumanay	5
Ellikqal‘a	35




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning – 487 ta yoki 1,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

94,5 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘shir sur‘ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta‘minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,7 foizni tashkil etib, o‘shir sur‘ati 105,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta‘minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o‘shir sur‘ati 90,0 foizni tashkil etdi;




Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Tumanlar kesimida


Nukus sh	388
Amudaryo	161
Beruniy	102
Bo‘zotov	12
Qorao‘zak	30
Kegeyli	45
Qo‘ng‘irot	112
Qonliqo‘l	32
Mo‘ynoq	30
Nukus	13
Taxiatosh	26
Taxtako‘pir	18
To‘rtko‘l	135
Xo‘jayli	65
Chimboy	51
Shumanay	23
Ellikqal‘a	105



2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur‘ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 118,3 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,5 foiz ulushini tashkil etdi;


- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 92,5 foiz ulushini tashkil etdi.




Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)


Yillar kesimida



Yillar kesimida o‘rinish sur‘ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish




Boshqa turlar

Tumanlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,4 foiz), To‘rtko‘l (10,6 foiz), Beruniy (8,4 foiz), Amudaryo (8,5 foiz) va Ellikqal‘a (7,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 2020-yilning mos davriga nisbatan 1 160 taga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tumanlar kesimida


Nukus sh.	318	Nukus	61
Amudaryo	304	Taxiatosh	90
Beruniy	164	Taxtako‘pir	69
Bo‘zotov	13	To‘rtko‘l	479
Qorao‘zak	25	Xo‘jayli	117
Kegayli	26	Chimboy	22
Qo‘ng‘irot	108	Shumanay	22
Qonliko‘l	121	Ellikqal‘a	205
Mo‘ynoq	29		

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Mas’uliyati cheklangan jamiyati - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 22,1 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 17,1 mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	4 733	Nukus	707
Amudaryo	1 425	Taxiatosh	440
Beruniy	1 439	Taxtako‘pir	298
Bo‘zotov	320	To‘rtko‘l	1 610
Qorao‘zak	570	Xo‘jayli	935
Kegayli	644	Chimboy	831
Qo‘ng‘irot	1 046	Shumanay	339
Qonliko‘l	346	Ellikqal‘a	965
Mo‘ynoq	523		

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Xususiy korxon – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxon tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,1 foizni tashkil etdi.


Tumanlar kesimida

Nukus sh.	521	Nukus	32
Amudaryo	109	Taxiatosh	108
Beruniy	213	Taxtako‘pir	77
Bo‘zotov	10	To‘rtko‘l	217
Qorao‘zak	44	Xo‘jayli	92
Kegayli	51	Chimboy	89
Qo‘ng‘irot	193	Shumanay	130
Qonliko‘l	86	Ellikqal‘a	360
Mo‘ynoq	43		

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra,

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 155 dan 170 taga yoki 109,7 foizga oshgan.

Tumanlar kesimida

Nukus sh.	37	Nukus	8
Amudaryo	6	Taxiatosh	7
Beruniy	6	Taxtako‘pir	2
Bo‘zotov	7	To‘rtko‘l	10
Qorao‘zak	8	Xo‘jayli	8
Kegayli	8	Chimboy	3
Qo‘ng‘irot	14	Shumanay	2
Qonliko‘l	8	Ellikqal‘a	4
Mo‘ynoq	32		

**Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma‘lumot**
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 81 tasi qo‘shma korxonalar, 89 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog‘iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni**
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

chet el korxonalar

qo‘shma korxonalar

20	<u>Nukus sh.</u>	17
16	<u>Mo‘ynoq</u>	16
6	<u>Oo‘ng‘irot</u>	8
4	<u>Qonliko‘l</u>	4
6	<u>Nukus</u>	2
3	<u>Oorao‘zak</u>	5
3	<u>Kegeyli</u>	5
6	<u>Taxiatosh</u>	1
5	<u>To‘rtko‘l</u>	5
4	<u>Beruniy</u>	2
1	<u>Bo‘zotov</u>	6
4	<u>Xo‘jayli</u>	4
4	<u>Amudaryo</u>	2
1	<u>Taxtako‘pir</u>	1
1	<u>Chimboy</u>	2
2	<u>Shumanay</u>	-
3	<u>Ellikqal‘a</u>	1

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma’lumotnoma tushidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.